

## **SO‘Z YASALISHI TIZIMIDA ICHKI YASALISH VA TASHQI YASALISHGA MUNOSABAT**

**Jahongir Abdumalikov**

Guliston davlat universiteti, O‘zbek tilshunosligi kafedrasи magistranti

E-mail: jahongirabdumalikov04@gmail.com

So‘z yasalishiga aloqador eng murakkab va munozarali masalalar qatorida bu tizimdagи ichki yasalish va tashqi yasalish hamda so‘z yasalishi bilan shakl yasalishi munosabati masalalaridir.

Affiksatsiya usulida so‘z yasalishida qanday, asosan qaysi turkumga taalluqli hisoblanuvchi asosdan yangi so‘z hosil bo‘lishiga ko‘ra, yasalish ichki yasalish va tashqi yasalish tarzida ikki turga ajratilganligi kuzatiladi. Bu bordagi asosiy fikr A.G‘ulomov tomonidan quyidagicha bayon qilingan: «Otlarda affikslar orqali so‘z yasash ayrim bir xususiyatga ega: bunda boshqa turkumdagи so‘zlardan yasash (tashqi yasalish) ham, otning o‘zidan yasash - ichki yasalish ham bor (otdan boshqa turkumdagи so‘zlar, odatda, tashqi yasalish xususiyatiga ega). Bunda: avval tashqi yasovchi, keyin ichki yasovchi qo‘shiladi suvoqchi, kiyimlik kabi» («Grammtika», 104-bet).<sup>1</sup> Ichki yasalish va tashqi yasalish munosabatlari hamda ularga o‘zbek olimlarining qarashlari masalasi haqida gap borar ekan, yuqoridagi fikr tahlili doirasida fikrlar bayon qilishga harakat qilamiz. Gapni yuqoridagi fikrga, aniqrog‘i o‘zining oxirgi qismi mohiyatiga e’tibor berishdan boshlaymiz: «Otdan boshqa turkumdagи so‘zlar, odatda, tashqi yasalish xususiyatiga ega» deyilgan fikr to‘g‘rimi va bu boradagi fikr ilgari ham shu taxlitda bayon etilganmi - o‘z tasdig‘iga ega bo‘lganmi? Masalasiga to‘xtalamiz. Avval shu grammatikaning o‘zida bu fikr o‘z tasdig‘ini topgan-topmaganligiga e’tibor qarataylik. Shu grammatikaning fe’l yasalish qismida, aniqrog‘i, affiksatsiya usulida fe’l yasalishi qismida, o‘qiyimiz: «Affiksatsiya usuli bilan o‘zbek tilida fe’l bo‘lmagan so‘zlardangina fe’l yasaladi: ish-ishla, kuch-kuchay kabi». Ko‘rdikki, fikr qat’iy, o‘rinli bo‘lib, bu qism akad. A.Xojiev tomonidan yozilgan. Endi sifat yasalishi borasidagi fikrni keltiramiz (M.Sodiqova fikri): «Affikslar vositasida turli so‘z turkumlaridan (ot, sifat, olmoshdan, fe’ldan, taqlidiy-tasviriyl so‘zlardan) sifat yasaladi»(272). To‘g‘ri, bu o‘rinda sifatning eng ko‘p miqdorda otdan va fe’ldan yasalishi alohida ta’kidlangan. Shunga qaramay, birinchi, asosiy fikrni qisman inkor etadi. Ya’ni sifatlarda (affiksatsiyada) ichki yasalish mavjudligi tan olinadi. Grammatikaning «Ravish yasalishi» qismida yangi ravishlarning ravish turkumiga oid negizlardan ham yasalishi mumkinligi qayd etilgani kuzatiladi: «-cha affiksi ot, sifat, olmosh, sifatdosh va ravishlarga qo‘shilib ravish yasaydi» (529-bet) deyilib, asosan, yashirinchа so‘zi misol tariqasida beriladi. Bunda ham aytilgan fikrni qisman rad etish kuzatiladi. Keltirilgan dalillar XX asrning 70-yillariga taalluqdir. Endi, tarixga murojaat qilib ko‘ramiz.

<sup>1</sup>O‘zbek tili grammatikasi. T.: Fan. 1-kitob, 1975, 104-bet.

S.Mutalibov «XI asr yozma yodgorliklarida fe'l kategoriyasi» kitobida: «Affiksatsiya yo'li bilan yasash ikki ko'rinishga ega: a)fe'lidan boshqa so'zlarga turli qo'shimchalar qo'shish yo'li...; b)fe'l o'zagiga qo'shimalar qo'shib, turli fe'l darajalari yasash yo'li (22-bet).<sup>2</sup> To'g'ri, olim «u davr tilida buyruq fe'llar affiksatsiya va kompozitsiya yo'li bilan yasalar edi» degan fikrni aytgan. Biroq, baribir, gap yangi fe'llarning yasalishi - fe'l yasalishi haqida borgan. Shunday bo'lsa-da, olim ichki yasalishga keng to'xtalib o'tirmaydi: kirikti, chiniqtি tarzidagi misollarni «Devoni lug'atit turk» (M.Qoshg'ariy)dan keltirish bilan cheklanadi. Bularda tub ma'nodagi yangi fe'l yasalishi yo'qligiga e'tibor qaratib o'tirmaydi. Prof. A.G'ułomov o'zining 1954 yilda nashr etgan «Fe'l» kitobida quyidagi fikrni bildiradi: «Yasalma fe'llar affikslar orqali tug'iladi (affiksatsiya). Bunday yasalish, o'zining qaysi so'z turkumiga xosligiga qarab, ikki to'daga bo'linadi: 1)fe'l o'zaklaridan fe'l yasash (ichki yasalish), 2)fe'l bo'limgan so'zlardan fe'l yasash».

Shu tarzda olim «Fe'lidan fe'l yasash» sarlavhasini qo'yib, fe'l yasash orqali: «Harakat protsessining ob'ektiv xarakteristikasi ifodalanishi (vid kategoriyasi); harakatning takrorlanishi, harakat sub'ekta va ob'ekti o'rtasidagi munosabat kabilar ifodalanishi»ni qayd etadi.<sup>3</sup> Ya'ni shu taxlit fe'llarda ichki yasalish borligini tan oladi. Shunga qaramay, bunda yangi fe'l yasalganligini aniq qayd etmaydi, yasalishni vid bilan bog'laydi. Olim keyingi davr qarashlarida qat'iy tarzda affiksatsiya usulida fe'l asoslardan yangi fe'llar yasalmasligini tan oladi. Yangi fe'lning fe'l negizlardan hosil qilinmasligini qayta-qayta ta'kidlaydi.

Tilshunos Z.Ma'rufov o'zining «So'z sostavi, «ot va sifat» kitobida otlarning ichki yasalish xarakteriga ega ekanligini tan olgani holda, sifatlarning asosan ot va fe'llardan yasalishini qayd etadi (ichki yasalishni tan olmaydi). Tilshunos Yo.Tojievning 1981 yili nashr etilgan «Ega ekanlik va ega emaslik ma'nolarini ifodalovchi affikslar sinonimiyasi» kitobida ham sifatlarning asosan ot va fe'llardan yasalishi qayd etiladi. Olim, umuman, so'z yasalishi tizimida ichki yasalish hodisasi borligini inkor etishga harakat qiladi. Olimning «O'zbek tilida shaxs otlari yasovchi affikslar sinonimiyasi», «Fe'l yasovchi affikslar sinonimiyasi»,<sup>4</sup> «Fe'llarning yasalishi haqida ba'zi mulohazalar» kabi ishlarida bu masalaga jiddiy munosabat bildirilganligi kuzatiladi. Ushbu ishlarda Yo.Tojiev bur-bura, sudra-sudrakla, quv-quvla, tep-tepkila, cho'z-cho'zg'ila, tit-titkipa, qo'z-qo'zi-qo'zg'a, sur-surka, tom-tomchila, bosinqira kabi ko'p so'zlar tahlilini keltirish orqali so'zlarda ichki yasalish yo'qligi, bunda yangi so'zlar (fe'l) yasalmasligini asosli tarzda inkor etgan. Shaxs otlaridagi ichki yasalishning ham shartli ekanligini, umuman, turkiy tillarda affiksatsiyada ichki yasalish, faqat sof sinxron yondashuvda, shartli tarzda mavjud bo'lib qolganligini, tan olinishi mumkinligini asoslaydi. Akademik A.Hojiev ot yasalishi baxsida shaxs otlarining hamda ot asoslardan yasalishini, juda kam miqdorda o'rin-joy otlarining ham ot asoslardan yasalishini

<sup>2</sup>Mutallibov S. «XX asr yozma yodgorliklarida fe'l kategoriyasi», -T.: 1955, 22-bet.

<sup>3</sup>G'ułomov A. Fe'l. -T.: 1954. 68-bet.

<sup>4</sup>Tojiev Yo. Ega ekanlik, ega emaslik ma'nolarini ifodalovchi affikslar sinonimiyasi, T., Universitet. 1981 y.

qayd etib o‘tadi va bu turkum doirasida ichki yasalish bor ekanligiga e’tibor qaratadi.<sup>5</sup> Olim sifatlarning asosan ot asoslardan va qisman fe’l asoslardan yasalishini qayd etadi (51 - betdan). Demak, sifat yasalishida ichki yasalish yo‘q ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Ravish yasalishida ayrim affikslar (asosan, -cha) ishtirok etishini nazarda tutsa-da, umuman, ravish yasalishi ma’lum bir tizimni tashkil etmasligini A.Hojiev, haqiqatan ham, to‘g‘ri baholaydi. Prof.A.G‘ulomovning ravish va sifat yasalishiga doir qarashlari alohida ilmiy ishlarida qayd etilgan emas. Akademik A.Hojievning «O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi» yangi qo‘llanmasida son, olmosh va ravish turkumlari doirasida so‘z yasalish tizimi amal qilmasligini ko‘rsatilgan. (61-bet). Bu fikr, olmosh turkumlari borasida ishonchli asoslab berilgan. Ba’zi ishlarda olmoshlarda so‘z yasalish qayd etilsa ham bu fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi<sup>6</sup>.

Yuqoridaq qisqacha tahlildan ko‘rinadiki: a) hozirgi o‘zbek tili so‘z yasalishi tizimida ichki yasalish asosan ot turkumiga oid yasama so‘zlar doirasida mavjud bo‘lib, u ham shaxs otlari va o‘rin-joy otlari yasalishi doirasida shartli ravishda tan olinadi. Chunki ana shu shaxs otlari hamda o‘rin-joy otlarining barchasi, aslida sifatning otlashuvi natijasi sifatida, sifatlanishning ellipsisiga uchrashidan vujudga kelganligi asoslab berilgan. Bu holat - chi affiksining aslida sifatdosh yasovchi ekanligini qayd etgan ayrim ishlarda ham tan olinadi.<sup>7</sup> b)boshqa so‘z turkumlari doirasida, jumladan, fe’l va ravish, sifat yasalishlari doirasida ham kuzatilmaydi. XX asrning 60-yillariga qadar ichki yasalish keng tarqalganligiga qaramay, buni prof.A.G‘ulomov ham ta’kidlagan bo‘lsa-da, hozir bu masalaga yondashishda deyarli bir xillikka erishilgan.

O‘zbek tilida fe’ldan (fe’l asoslardan) fe’l yasalmasligi, hatto, -la affiksi ham fe’l asoslardan harakatning tarzini ifodalovchi fe’l shakllarinigina hosil qilishi ayrim ishlarda o‘z tasdiqini topdi, tasdiqladi.<sup>8</sup> Ko‘rinadiki, A.Fulomov, 70-yillarga kelib bu borada o‘z qat’iy fikrini aytgan. Ya’ni «Affiksatsiya usuli bilan o‘zbek tilida fe’l bo‘lmagan so‘zlardangina fe’l yasaladi» degan fikr to‘g‘ri ekanligiga qat’iy ishongan va akademik A.Hojiev qarashini tasdiqlagan.

O‘zbek tilida so‘z yasalishi va shakl yasalishi asosga affiks qo‘sib hosil qilinishi jihatidan bir-biriga o‘xshasa ham, so‘z yasalishida yasovchi affikslar ishtirok etishi va shunga ko‘ra, yangi lug‘aviy ma’noli birliklar (so‘zlar yoki leksemalar) hosil bo‘lsa, shakl yasalishida shakl hosil qiluvchi, ya’ni grammatik ma’no ifodalovchi affikslar ishtirok etishi va shunga ko‘ra yangi lug‘aviy ma’noli so‘z yasalmasligi ularni bir-biridan tubdan farqli tizim ekanini ko‘rsatadi. Fe’ldan fe’l yasalishi shakl yasalishi tizimi doirasiga kiradi. Uni so‘z yasalishi tizimida tekshirib bo‘lmaydi.

Shunday qilib, A.Hojiev tomonidan XX asrning 50-yillarida «fe’llarda ichki yasalish

<sup>5</sup>Xojiev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi. T., 1989, 35-49-betlar.

<sup>6</sup>Hojiev A. XI-XIXasrlar o‘zbek tili morfologiysi, T., Fan, 1990, 156-bet.

<sup>7</sup>Abduraxmonov G’., Shukurov Sh., O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi, T., 1973.

<sup>8</sup>Sharipov F. O‘zbek tilida xarakat tarzining sintetik ifodalanishi.Nomzodlik dissertatsiyasi.T., 2009y.,

mavjud» degan tartibda qo‘yilgan masala 70- yillarga kelib o‘z echimini topdi, deyish mumkin.

Shaxs otlari va ayrim o‘rin-joy otlari yasalishidagi ichki yasalish masalasiga ma’lum darajada prof.Yo.Tojiev tomonidan e’tibor qaratilib, bu holatning ham shartlilik xarakteriga ega ekanligi ta’kidlanayotganligiga qaramay, mazkur masala o‘zining qat’iy echimini topgan deyish qiyin. Bu yana alohida tadqiqotlarni talab qiladi.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. G‘ulomov A. O‘zbek tilida so‘z yasash yo‘llari haqida. Til va adabiyot instituti ilmiy asarlari. 1-kitob, -T., 1949, -B. 37-87.
2. Rahmatullaev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. -T., Universitet, 2009.
3. Tojiev Yo. O‘zbek tili morfemikasi, -T., 1992, -B.6-40.
4. Tojiev Yo. O‘zbek tilida qo‘shma so‘zlarning yasalishiga doir // O‘zMU ilmiy ishlari to‘plami. O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. -T., 2009.
5. O‘zbek tili grammatikasi. -T.: 1975. –B.24-25.
6. O‘zbek tilining ilmiy grammatikasi. Kirish. 1975. 1-kitob, -B. 22.
7. Usmonova M.K. O‘zbek tilida soddalashish (yasama so‘z va so‘zshakllar misolida) nomzodlik dissertatsiyasi, -T., 2012.
8. Xojiev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi, -T., O‘qituvchi, 1989.
9. Hojiev A. Grammatika. 1-kitob, -B.22.
- 10.Hojiev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi.1989 y. –B.16-17.
- 11.Hojiev A. O‘zbek tilida qo‘shma, juft va takroriy so‘zlar.1963 y.